



MUSTAQILLIK YILLARIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

(O'zbekiston mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlanadi)

**O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori
VALIYEV BOBUR BATIROVICH**

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida, xususan, yangi islohotlar davrida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatining ustuvor yo'nalishlari va uning transformatsiyasi tahlil qilingan. Mamlakat investitsiya siyosatining iqtisodiyotni liberallashtirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, sanoatni diversifikatsiya qilish, hududlarni kompleks rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi roli ochib berilgan. 2017–2025-yillarda xorijiy investitsiya va kreditlar dinamikasi, ularning investitsiyalar tarkibidagi o'zgarishi hamda hududlar bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarning samaradorligi mamlakatning innovatsion va institutsional salohiyati, inson kapitali hamda investitsiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga bog'liqligi asoslangan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, investitsion jozibadorlik, investitsiya muhiti, iqtisodiy liberallashuv, innovatsion rivojlanish, investitsiyalarni o'zlashtirish salohiyati, yashil energetika, raqamli iqtisodiyot, global qiymat zanjirlari, O'zbekiston–2030 strategiyasi..



Национальная гвардия Республики Узбекистан
Профессор Университета общественной безопасности,
доктор экономических наук
ВАЛИЕВ БОБУР БАТИРОВИЧ

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

(Посвящается 35-летию независимости Республики Узбекистан)

Аннотация

В статье проанализированы приоритетные направления привлечения иностранных инвестиций в Республику Узбекистан в годы независимости, особенно на современном этапе экономических реформ, а также трансформация инвестиционной политики страны. Раскрыта роль инвестиционной политики в либерализации экономики, углублении институциональных преобразований, диверсификации промышленности, комплексном развитии регионов, повышении экспортного потенциала и формировании инновационной экономики. Проведен анализ динамики иностранных инвестиций и кредитов в 2017–2025 годах, изменений их доли в структуре инвестиций и территориального распределения инвестиционных потоков. Обосновано, что эффективность иностранных инвестиций зависит не только от объема привлеченного капитала, но и от инновационного и институционального потенциала страны, качества человеческого капитала и способности национальной экономики эффективно осваивать новые технологии и управленческие практики.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная привлекательность, инвестиционный климат, экономическая либерализация, инновационное развитие, инвестиционная



восприимчивость, зеленая энергетика, цифровая экономика, глобальные цепочки создания стоимости, стратегия «Узбекистан–2030».

National Guard of the Republic of Uzbekistan
Professor at the University of Public Safety,
Doctor of Economics
VALIYEV BOBUR BATIROVICH

**PRIORITY DIRECTIONS FOR ATTRACTING FOREIGN
INVESTMENT DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE**
*(Dedicated to the 35th Anniversary of the Independence of the Republic of
Uzbekistan)*

Abstract

This article analyzes the priority areas for attracting foreign investment in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, particularly at the current stage of economic reforms, as well as the transformation of the country's investment policy. The study highlights the role of investment policy in economic liberalization, institutional transformation, industrial diversification, comprehensive regional development, export capacity enhancement, and the formation of an innovation-driven economy. The dynamics of foreign investment and loans during 2017–2025, changes in their share in the investment structure, and the regional distribution of investment flows are examined. The article substantiates that the effectiveness of foreign investment depends not only on the volume of attracted capital but also on the country's innovation and institutional capacity, the quality of human capital, and the ability of the national economy to effectively absorb new technologies and management practices.



Keywords: foreign investment, foreign direct investment, investment policy, investment attractiveness, investment climate, economic liberalization, innovation-driven development, absorptive capacity, green energy, digital economy, global value chains, Uzbekistan–2030 Strategy.

Kirish

Mustaqillik yillarida, ayniqsa yangi islohotlar davrida O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati tarixida iqtisodiyotni chuqur liberallashtirish, institutsional transformatsiya qilish va investitsion rivojlanishning zamonaviy modelini shakllantirish bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikning Yangi O'zbekiston davrida investitsiya siyosati mamlakatni modernizatsiya qilish, sanoatni diversifikatsiyalash, hududlarni kompleks rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvni jadallashtirishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Ilgari investitsiyalar asosan davlat kapital qo'yilmalari hisobiga shakllangan bo'lsa, yangi bosqichda xususiy investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), xalqaro moliya institutlari mablag'lari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari va kapital bozorlaridan jalb qilinayotgan resurslarning ulushini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Natijada investitsiya siyosati nafaqat kapital jalb qilish mexanizmi, balki iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishning strategik instrumentiga aylandi.

Mazkur davrda O'zbekiston xalqaro moliya institutlari va xorijiy hamkorlar bilan investitsiyaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik



kengaydi. Energetika, transport, logistika, suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida milliardlab dollar qiymatidagi investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida investitsiya siyosati endilikda nafaqat investitsiyalar hajmini oshirish, balki ularning sifatini yaxshilashga ham yo‘naltirilmoqda. Jumladan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni tijoratlashtirish, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, bioiqtisodiyot, yashil energetika, sanoat kooperatsiyasi, eksportga yo‘naltirilgan klasterlar va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Shu bilan birga, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, investorlar bilan individual ishlash tizimini joriy etish, loyiha boshqaruvining zamonaviy usullaridan foydalanish, investitsiya jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish hamda "bir investor – bir loyiha – bir mas'ul" tamoyilini keng qo‘llash orqali investitsiya boshqaruvi samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Asosiy qism

Zamonaviy adabiyotlarning muhim xulosalaridan biri shuki, xorijiy investitsiyalarning ijobiy samarasi o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Masalan, 2021-yilda *Frontiers in Environmental Science* jurnalida rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqot xorijiy investitsiya va yashil unumdorlik o‘rtasidagi munosabatda mamlakatning innovatsion salohiyati muhim chegaraviy omil ekanligini ko‘rsatgan¹. Innovatsiya darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyaning yashil unumdorlikka ta'siri salbiy bo‘lishi mumkin, innovatsion faoliyat ma'lum chegaradan oshganda esa xorijiy investitsiya ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

¹ Xu S and Li Z (2021) The Impact of Innovation Activities, Foreign Direct Investment on Improved Green Productivity: Evidence From Developing Countries. *Front. Environ. Sci.* 9:635261. doi: 10.3389/fenvs.2021.635261



Bu natija “absorptive capacity” — qabul qilish va o‘zlashtirish salohiyati konsepsiyasining zamonaviy investitsiya siyosatidagi ahamiyatini kuchaytiradi. Ya’ni xorijiy investor texnologiya olib kirgan taqdirda ham, mahalliy korxonalarda: malakali kadrlar, ilmiy-tadqiqot salohiyati, innovatsion infratuzilma, raqamli kompetensiyalar, moliyaviy imkoniyatlar, menejment sifati yetarli bo‘lmasa, xorijiy investitsiyaning texnologik qo‘shimcha samarasi cheklanishi mumkin. Shu sababli zamonaviy investitsiya siyosati xorijiy investitsiya jalb qilish siyosatini ta’lim, innovatsiya, sanoat siyosati va kichik biznesni rivojlantirish siyosati bilan integratsiya qilishi kerak.


2017-2025 yillarda mamlakatimizda xorijiy investitsiya va kreditlar o'sish dinamikasi O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi to'qqiz yillikdagi transformatsiya jarayonlarini, tashqi dunyoga ochilish siyosatini va xalqaro moliya bozorlaridagi nufuzini tahlil qilish uchun eng muhim strategik manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2017-yilda mamlakatda boshlangan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, xususan, valyuta bozorining liberallashtirilishi va xorijiy investorlar uchun yaratilgan huquqiy kafolatlar natijasida investitsiya oqimi dastlabki yildayoq 120,5 foizlik o'sish bilan boshlangan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 145,2 foizga yetib, investorlarning mamlakat iqtisodiy salohiyatiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini tasdiqladi. Yangi rivojlanish davrining eng diqqatga sazovor nuqtasi bu shubhasiz 2019-yil bo'lib, unda o'sish sur'ati misli ko'rilmagan darajada — 250,4 foizga yetganini ko'ramiz, bu esa O'zbekistonning xalqaro obligatsiyalar bozoriga chiqishi, yirik davlat korxonalarini modernizatsiya qilish uchun jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari ochilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan "investitsion portlash" davri sifatida tarixda qoladi.

Biroq, 2020-yilda butun dunyoni qamrab olgan global pandemiya va uning natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy cheklovlar xorijiy kapital harakatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, natijada o'sish sur'ati 105,1 foizgacha



pasaydi. Ammo shunga qaramay, ko'rsatkichning 100 foizdan yuqori saqlanib qolishi O'zbekistonning hatto inqirozli vaziyatlarda ham o'z majburiyatlarini bajarishga qodir ekanligini va investitsion jozibadorligini yo'qotmaganini anglatadi. 2021-yilda kuzatilgan 115,8 foizlik va 2022-yildagi 109,4 foizlik ko'rsatkichlar global geosiyosiy beqarorlik va logistika zanjirlaridagi uzilishlar fonida iqtisodiyotning moslashuvchanligini ko'rsatgan bo'lsa, 2023-yilga kelib investitsion faollikning yangi to'lqini boshlandi va o'sish sur'ati 151,2 foizni tashkil etdi. Bu asosan energetika sohasidagi "yashil" loyihalar, infratuzilmani rivojlantirish va sanoat klasterlarini tashkil etishga yo'naltirilgan yirik xorijiy kapital oqimi natijasidir.

O'zbekistonda xorijiy investitsiya va kreditlarning 2024-yilda 122,4 foiz va 2025-yilda 112,8 foiz darajasida kuzatilgan o'sish sur'atlari iqtisodiyotning barqaror va prognoz qilinadigan rivojlanish bosqichiga o'tganidan dalolat beradi. Bunda asosiy e'tibor nafaqat miqdorga, balki investitsiyalarning sifatiga, ya'ni yuqori texnologik ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar hajmini oshirishga qaratilmoqda. Hududiy kesimda olib qaraganda, ushbu xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlaridagi yirik sanoat obyektlariga yo'naltirilayotgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa chekka hududlarda ham xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni keskin ortib bormoqda. Bu esa mamlakatning barcha 14 ta hududida birdek iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. 2017–2025-yillar oralig'idagi ushbu dinamika O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatidagi o'rni mustahkamlanib borayotganini, xorijiy investorlar uchun uzoq muddatli va ishonchli hamkor sifatida shakllanganini hamda 2026-yilda ham ushbu ijobiy tendensiya yangi sifat bosqichida davom etishini ko'rsatmoqda, bu esa o'z navbatida aholi farovonligini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omilidir.




**1-rasm. O'zbekistonda xorijiy investitsiya va kreditlarning
o'sish sur'atlari, 2017-2025 yillar**

O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi sakkiz yillikdagi tub burilishlarini, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki keskin kamayib, bozor mexanizmlari va xalqaro kapitalning o'rni salmoqli darajada ortmoqda. Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, eng avvalo, xorijiy investitsiyalarning ulushi 2017-yildagi 23,8 foizdan 2025-yil yakuniga kelib 70,5 foizga yetgani mamlakatimizning xalqaro maydondagi investitsion jozibadorligi naqadar yuqori darajaga ko'tarilganidan va tashqi dunyoga ochilish siyosati o'zining amaliy mevasini berayotganidan dalolat beradi. Bu misli ko'rilmagan o'sish O'zbekistonning global moliya bozorlarida ishonchli hamkor sifatida tan olinganini, mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan kapitalning nafaqat hajmi, balki sifati ham o'zgarganini, ya'ni yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro moliya institutlari uzoq muddatli strategik loyihalarga mablag' yo'naltirayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, davlat byudjeti mablag'larining investitsiyalar tarkibidagi ulushi 15,1 foizdan 4,8 foizgacha keskin kamayishi iqtisodiyotni liberallashtirish yo'lidagi eng katta yutuq bo'lib, bu davlatning asosiy investorlik funksiyasidan voz kechib,



tartibga soluvchi va qulay biznes muhiti yaratuvchi subyektga aylanganini, byudjet mablag'lari esa endilikda ko'proq ijtimoiy sohalarga, inson kapitalini rivojlantirishga va strategik infratuzilmaga yo'naltirilayotganini anglatadi.



2-rasm. O'zbekistonda xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi, 2025 yil solishtirma narxlarga aylantirilgan, mlrd. so'm

O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi yillardagi transformatsiya jarayonlari bevosita investitsion muhitning liberallasuvi va xorijiy kapitalni jalb qilish strategiyasining samaradorligi bilan bog'liqdir. 2017 yilda respublika bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi nominal qiymatda 17,1 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yil yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich 433,9 trillion so'mga yetdi. Bu raqamlar nafaqat nominal o'sishni, balki mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan xalqaro ishonchning tubdan o'zgarganini anglatadi. 2017 yilgi narxlarni 2025 yilgi qiyosiy narxlarga (deflyator koeffitsientini hisobga olgan holda) o'tkazganimizda ham, real o'sish sur'atlari bir necha barobarni tashkil etayotganini ko'rishimiz mumkin. Hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 2017 yilda investitsiyalarning



asosiy qismi Buxoro viloyati (gaz-kimyo loyihalari hisobiga) va Toshkent shahriga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025 yilga kelib investitsiya geografiyasi sezilarli darajada diversifikatsiya qilindi. Xususan, Toshkent shahri 66,7 trillion so'm bilan yetakchilikni saqlab qolgan bo'lsa-da, Toshkent viloyati (52,4 trln so'm) va Namangan viloyati (48,7 trln so'm) kabi hududlarda sanoat klasterlari va yirik energetika loyihalari hisobiga investitsiya oqimi keskin oshdi. Navoiy viloyatida tog'-kon sanoati va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo'naltirilgan 36,7 trillion so'mlik xorijiy kapital hududiy yalpi mahsulotning barqaror o'sishini ta'minlamoqda.

Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida esa uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlashga qaratilgan loyihalar xorijiy investorlar uchun hamon jozibadorligini yo'qotmagan. Vodiylar viloyatlari, xususan Andijon va Farg'onada mashinasozlik va to'qimachilik sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 25-27 trillion so'm atrofida shakllanib, yangi ish o'rinlari yaratishda asosiy drayverga aylandi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa texnoparklar va erkin iqtisodiy zonalar faoliyati natijasida xorijiy kapital ishtiroki 2017 yilga nisbatan o'nlab barobarga o'sdi. Ushbu dinamika O'zbekistonning investitsion jozibadorligi faqatgina xomashyo resurslariga emas, balki yuqori texnologik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga ham ko'chayotganidan dalolat beradi. 2025 yilgi ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushi ortib bormoqda, bu esa davlat tashqi qarziga bo'lgan bosimni kamaytirib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlamoqda.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017-yildan keyingi iqtisodiy islohotlar davrida O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati tubdan transformatsiyalandi. Investitsiya siyosati iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, hududlarni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish



o'rinlarini yaratishning muhim strategik vositasiga aylandi. 2017–2025-yillarda xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining sezilarli o'sishi mamlakatning investitsion jozibadorligi va xalqaro investitsiyaviy hamkorligining kengayganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar samaradorligi faqat jalb qilingan kapital hajmi bilan emas, balki mamlakatning innovatsion, institutsional va inson kapitali salohiyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli kelgusida investitsiya siyosatini xorijiy kapitalni jalb qilishdan tashqari, ilg'or texnologiyalar va bilimlarni samarali o'zlashtirish, mahalliy korxonalarning innovatsion salohiyatini oshirish hamda investitsiyalarning hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha samarali taqsimlanishini ta'minlashga yo'naltirish muhimdir. "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, yashil energetika, sanoat kooperatsiyasi va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Demak, O'zbekiston uchun keyingi bosqichdagi asosiy vazifa xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish bilan bir qatorda, ularning texnologik, innovatsion, eksportbop va hududiy rivojlanishga ta'sirini maksimal darajada oshirishdan iborat.

Adabiyot va manbalar

1. **Xu, S. & Li, Z. (2021).** The Impact of Innovation Activities, Foreign Direct Investment on Improved Green Productivity: Evidence From Developing Countries. *Frontiers in Environmental Science*, 9. DOI: 10.3389/fenvs.2021.635261.



2. **Christopoulou, D., Papageorgiadis, N., Wang, C., & Magkonis, G. (2021).** IPR Law Protection and Enforcement and the Effect on Horizontal Productivity Spillovers from Inward FDI to Domestic Firms: A Meta-analysis. *Management International Review*, 61, 235–266.
3. **Yue, W. (2022).** Foreign direct investment and the innovation performance of local enterprises. *Humanities and Social Sciences Communications*, 9, 252. DOI: 10.1057/s41599-022-01274-6.
4. **Chen, Y., Jiang, H., Liang, Y., & Pan, S. (2022).** The impact of foreign direct investment on innovation: Evidence from patent filings and citations in China. *Journal of Comparative Economics*, 50(4), 917–945. DOI: 10.1016/j.jce.2022.05.005.